


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEKANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSIYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	

KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

i.f.n, dotsent, auditor

Annotatsiya: Kichik va o'rta biznes subyektlarining hayotiy aylanish bosqichlari va ularning auditga ta'sirini aniqlash auditorlarga tartib-qoidalarni har bir biznesning o'ziga xos xavf ko'rinishlariga moslashtirishga imkon beradi. Bosqichlarni baholash subyektning rivojlanishidagi muhim nuqtalarni aniqlashga, zarur auditorlik dalillari hajmini optimallashtirishga va xulosalar aniqligini oshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, hayotiy aylanish bosqichi shunchaki korxonaning tavsifi emas, balki auditorlik strategiyasini tanlash, xatarlarni baholash va auditorlik tartib-taomillarning xususiyati, muddatlari hamda hajmini aniqlash uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes subyektlari, hayotiy aylanish bosqichlari, biznes xatarlari, xalqaro audit standartlari, biznes audit, ichki nazorat tizimi, faoliyat uzluksizligi, usullar, biznes modeli, ko'rsatkichlar, o'rganish obyekti.

Аннотация: Определение стадий жизненного цикла субъектов малого и среднего бизнеса и их влияния на аудит позволяет аудиторам адаптировать аудиторские процедуры к специфическим видам рисков, характерным для каждого бизнеса. Оценка стадий способствует выявлению ключевых моментов в развитии субъекта, оптимизации объема необходимых аудиторских доказательств и повышению точности выводов. Основное преимущество данного подхода заключается в том, что стадия жизненного цикла рассматривается не просто как характеристика предприятия, а как основа для выбора аудиторской стратегии, оценки рисков, а также определения характера, сроков и объема аудиторских процедур.

Ключевые слова: субъекты малого и среднего бизнеса, стадии жизненного цикла, бизнес-риски, международные стандарты аудита, бизнес-аудит, система внутреннего контроля, непрерывность деятельности, методы, бизнес-модель, показатели, объект исследования.

Abstract: Identifying the life-cycle stages of small and medium-sized business entities and assessing their impact on auditing enables auditors to tailor audit procedures to the specific risk profiles of each business. The assessment of these stages helps identify critical points in an entity's development, optimize the volume of required audit evidence, and improve the accuracy of audit conclusions. The main advantage of this approach is that the life-cycle stage is regarded not merely as a characteristic of an enterprise, but as a basis for selecting an audit strategy, assessing risks, and determining the nature, timing, and extent of audit procedures.

Keywords: small and medium-sized business entities, life-cycle stages, business risks, International Standards on Auditing, business audit, internal control system, going concern, methods, business model, indicators, research object.

KIRISH

Kichik va o'rta biznes subyektlari (KO'BS)da audit jarayonini ularning hayotiy aylanish bosqichlari (HAB) ni tahlil qilish orqali o'tkazish yondashuvida eng murakkab holat mijozning tekshiruv o'tkazish sanasiga ushbu bosqichlarning qaysi birida turganini aniqlashdir.

Audit o'tkazish sanasiga mijoz bo'lgan KO'BSning hayotiy aylanish bosqichini aniqlash auditorlarga tekshiruv strategiyasini moslashtirish, biznes xatarlarini baholash, muhimlik darajasini aniq hisoblash va muayyan kompaniyaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli tahliliy tartib-qoidalarni tanlash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes subyektlarining hayotiy aylanish bosqichlarini aniqlash hamda ushbu bosqichlarning boshqaruv va auditorlik faoliyatiga ta'sirini baholash masalalari xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy va



uslubiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy qarashlarda korxonaning rivojlanish bosqichini faqat uning faoliyat yuritgan yillari bilan belgilash yetarli emasligi, bunda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'zaro uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Korxonaning yoshi, sotish hajmi va moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi miqdoriy mezonlar sifatida namoyon bo'lsa, boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilma, biznes modeli, bozor strategiyasi va ichki nazoratning shakllanganlik darajasi sifat mezonlari sifatida qoraladi.

G.V. Shirokova tadbirkorlik firmalarining hayotiy aylanish bosqichlarini o'rganishda korxonaning yoshi, hajmi va o'sish sur'atlari bilan bir qatorda tashkiliy tuzilma, boshqaruvning markazlashuv darajasi, qarorlar qabul qilish tartibi hamda korporativ munosabatlarning shakllanishini hisobga olish zarurligini asoslagan. Muallif korxona rivojlanishini bir-biridan qat'iy ajratilgan mexanik davrlar emas, balki tashkiliy xususiyatlari va boshqaruv muammolari bilan farqlanuvchi o'zaro bog'liq bosqichlar majmui sifatida talqin qiladi [8]. Mazkur yondashuv korxonaning xronologik yoshi uning haqiqiy iqtisodiy va tashkiliy yetukligini har doim ham to'liq ifodalamasligini ko'rsatadi.

O.V. Pototskiy kichik va o'rta biznes korxonalarining hayotiy aylanishini boshqaruv qarorlarining mazmuni va ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Uning fikricha, korxona rivojlanishining har bir bosqichida moliyalashtirish, investitsiyalash, bozorni kengaytirish, tashkiliy vakolatlarni taqsimlash va nazoratni tashkil etishga oid qarorlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Korxona bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan qo'llaniladigan boshqaruv vositalari, moliyaviy ehtiyojlar va risklarning tarkibi ham o'zgaradi [5]. Shuning uchun hayotiy aylanish bosqichini aniqlash nafaqat menejment, balki auditorlik risklarini baholash uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi.

Korxonalarning bozor muhitidagi xatti-harakatlarini tushuntirishda evolyutsion raqobat nazariyasi ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. A.E. Ponomarevning tadqiqotlarida Shumpeter raqobati korxonalarning innovatsion faolligi, yangi texnologiyalarni joriy etishi va bozor tuzilmasining o'zgarishi bilan bog'liq holda o'rganilgan [6]. A.B. Borisov tomonidan iqtisodiy atamalarga berilgan ta'riflar esa korxonalarni eksplarent, patiyent, violent va kommutant kabi strategik turlarga ajratishda nazariy asos vazifasini bajaradi [7]. Mazkur tasnif korxonaning hayotiy aylanish bosqichi uning yoshi bilangina emas, balki bozordagi xatti-harakati, innovatsion strategiyasi va raqobatga moslashish qobiliyati bilan ham tavsiflanishini ko'rsatadi.

Hayotiy aylanish konsepsiyasining auditorlik faoliyatiga tatbiq etilishi biznes risklariga asoslangan audit yondashuvining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. J. van Buuren, C. Koch, N. van Nieuw Amerongen va A.M. Wright kichik hamda o'rta auditorlik tashkilotlari tomonidan KO'BS auditida biznes risklari yondashuvining qo'llanilishini o'rganganlar. Mualliflar auditorlik yondashuvi mijoz faoliyatining murakkabligi, biznes va soliq hisobining o'zaro bog'liqligi, auditorlik texnologiyalariga kiritilgan investitsiyalar hamda nazorat qiluvchi organlar talablariga qarab farqlanishini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalari auditorlik uslubiyoti mijozning hajmi va faoliyat xususiyatlariga mutanosib ravishda moslashtirilishi lozimligini ko'rsatadi [1]. Demak, auditor mijozni o'rganishda faqat moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan cheklanmasdan, uning biznes modeli, strategiyasi, rivojlanish muhiti va asosiy biznes risklarini ham baholashi zarur.

Xalqaro audit standartlarida korxonaning hayotiy aylanish bosqichini alohida aniqlash va unga muvofiq audit dasturini ishlab chiqish to'g'ridan to'g'ri talab sifatida belgilanmagan. Shunga qaramay, XAS 330 qoidalariga muvofiq, auditor baholangan jiddiy buzib ko'rsatish risklariga mos javob choralarini ishlab chiqishi, nazorat testlari va mohiyati bo'yicha auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, muddati hamda hajmini aniqlashi lozim [9]. Ushbu talabni bajarish mijozning biznes faoliyati, ichki nazorat muhiti, operatsiyalar murakkabligi, moliyaviy barqarorligi va faoliyat uzluksizligi istiqbollari chuqur o'rganishni taqozo etadi. Mazkur omillar esa bevosita korxonaning hayotiy aylanish bosqichini tavsiflaydi.

N.I. Ponomareva va E.A. Lunochkina korxonaning moliyaviy holatini audit qilish usullarini uning hayotiy aylanish bosqichiga moslashtirish masalasini tadqiq etganlar. Mualliflar korxona rivojlanishining turli bosqichlarida moliyaviy ko'rsatkichlarning mazmuni, ularning o'zgarish sabablari va auditorlik e'tiborini talab qiluvchi yo'nalishlar farqlanishini ko'rsatganlar [10]. Xususan, faoliyatning dastlabki va o'sish bosqichlarida likvidlik, qarz kapitali, pul oqimlari va faoliyat uzluksizligi bilan bog'liq risklar ustuvor bo'lsa, yetuklik bosqichida ichki nazorat samaradorligi, rentabellik va aktivlardan foydalanish darajasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Pasayish bosqichida esa aktivlarning qadrsizlanishi, muddati o'tgan qarzdorlik, daromad va xarajatlarni manipulyatsiya qilish hamda bankrotlik xavfi auditorlik tekshiruvining asosiy yo'nalishlariga aylanadi.

Ko'rib chiqilgan ilmiy manbalar korxonaning hayotiy aylanish bosqichi boshqaruv mexanizmlari, moliyaviy holat, ichki nazorat tizimi, auditorlik riski, auditorni tanlash va audit sifati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning bir qismida hayotiy aylanish masalasi menejment nuqtai nazaridan, boshqa qismida moliyaviy tahlil, auditorlik riski yoki audit sifati doirasida alohida o'rganilgan. KO'BSning hayotiy aylanish bosqichini aniqlash, unga mos auditorlik strategiyasini tanlash, muhimlik darajasi va auditorlik riskini baholash hamda zarur auditorlik tartib-taomillarini yagona izchil uslubiyot asosida shakllantirish masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur ilmiy bo'shliq O'zbekiston sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2025-yil 19-martdagi “Kichik va oʻrta biznesning iqtisodiyotdagi oʻrnini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-50-son¹ Farmoni bilan 2030-yilga qadar kichik va oʻrta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish, ularning raqobatbardoshligi va yashovchanligini oshirish, yiriklashuvini ragʻbatlantirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellektni keng joriy etish vazifalari belgilangan [4]. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi KOʻBS faoliyati toʻgʻrisidagi moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarning ishonchligini oshirish hamda auditorlik yondashuvlarini tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotda KOʻBS auditini «hayotiy aylanish bosqichini aniqlash → auditorlik strategiyasini tanlash → muhimlik darajasini belgilash → auditorlik riskini baholash → auditorlik tartib-taomillarini tanlash → auditorning professional mulohazasini shakllantirish» ketma-ketligi asosida tashkil etish taklif qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hayotiy aylanish bosqichlari tahliliga asoslangan kichik va oʻrta biznes subyektlari auditining integrallashgan uslubiyotini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy manbalar va statistik maʼlumotlarni oʻrganish, ularni nazariy umumlashtirish, sintez qilish, tasniflash, tahlil va taqqoslash, shuningdek, induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik yoki oʻrta korxonaning hayotiy aylanish bosqichini aniqlashda shuni hisobga olish muhimki, korxonaning yoshi oʻz-oʻzidan uning rivojlanish bosqichini ifodalamaydi. Bir vaqtning oʻzida tashkil etilgan ikki korxona audit oʻtkazish sanasiga kelib mutlaqo turli rivojlanish bosqichlarida boʻlishi mumkin. Shu sababli auditorlik amaliyotida hayotiy aylanish bosqichini aniqlashda bir-birini toʻldiruvchi bir nechta yondashuvlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda xoʻjalik yurituvchi subyektlarning hayotiy aylanish bosqichini aniqlash uchun yoshga oid usul, oʻsish dinamikasi usuli, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli, pul oqimlari usuli, tashkiliy-sifat usuli, bozor strategiyasi usuli, integral-ball usuli hamda statistik-ekonometrik usullardan foydalaniladi.

Mazkur maqolada KOʻBS hayotiy aylanish bosqichini aniqlashning eng sodd va dastlabki baholash imkonini beruvchi yoshga oid usulning mohiyati, uning afzallik va cheklovlari, subyekt yoshini aniqlashda foydalaniladigan axborot manbalari, yoshni shartli davrlashtirish amaliyoti, yosh davrlarini tavsiflovchi asosiy belgilar, yosh omili asosida hayotiy aylanish bosqichiga tuzatishlar kiritish hamda mazkur usulni auditorlik tekshiruvda qoʻllash tartibi yoritiladi.

Yoshga oid usul KOʻBS hayotiy aylanish bosqichini dastlabki aniqlashning eng oddiy usuli hisoblanadi. Biroq ilmiy tadqiqotlarda ushbu yondashuv subyektlarni faqat faoliyat yillari boʻyicha oddiy taqsimlash emas, balki ularning xronologik yoshini rivojlanishning odatiy qonuniyatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash vositasi sifatida qaralishi lozim.

KOʻBS yoshini aniqlashda bir nechta axborot manbalaridan foydalanish mumkin. Avvalo, rasmiy davlat statistikasi va reyestrlari muhim ahamiyatga ega. Soliq organlari maʼlumotlari korxonaning davlat roʻyxatidan oʻtgan sanasini, davlat statistika organlari bazalari esa tarmoqlar kesimida KOʻBSlarning oʻrtacha faoliyat davomiyligi hamda demografik koʻrsatkichlarini aks ettiradi. KOʻBS reyestrlari esa subyektning mikro, kichik yoki oʻrta biznes toifasiga mansubligini tasdiqlovchi rasmiy maʼlumotlarni beradi.

Subyektning iqtisodiy rivojlanish bosqichini baholashda moliyaviy hisobotlar ham muhim manba hisoblanadi. Xususan, buxgalteriya balansi aktivlar dinamikasi, xususiy kapital va majburiyatlar nisbatini tavsiflaydi. Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot sof foyda, yalpi daromad, rentabellik hamda foiz toʻlovlarini qoplash koeffitsiyentini baholash imkonini beradi. Pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot esa operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat boʻyicha pul oqimlarini tahlil qilish orqali korxonaning zararsizlik nuqtasiga chiqish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Yosh va hayotiy aylanish bosqichlarini sifat jihatdan baholashda ilmiy-uslubiy modellar ham keng qoʻllaniladi. Jumladan, I. Adizes nazariyasi korxonaning «bolalik», «oʻspirinlik», «gullab-yashnash» va «qarish» bosqichlarini tashkiliy hamda boshqaruv xususiyatlari asosida tavsiflaydi. Greyner modeli esa korxona yoshi bilan rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan oʻsish inqirozlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilish imkonini beradi.

Korxonaning hayotiy aylanish bosqichini aniqlashda tarmoq va bozor maʼlumotlari ham muhim oʻrin tutadi. CRM tizimlari hamda savdo platformalari mijozlar bazasining oʻsishi, mahsulot yoki xizmatlarning hayotiy davri va takroriy xaridlar chastotasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni taqdim etadi. Marketing tadqiqotlari esa brendning

1 <https://lex.uz/docs/-7444738>



bozordagi o'rni va mahsulotning raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi. Mazkur baholashda korxonalar eksplarent, patiyent, violent va kommutant biznes turlariga ajratilishi mumkin.

Eksplarentlar prinsipial texnologik yangiliklar va innovatsion g'oyalarni birinchi bo'lib joriy etuvchi novator korxonalarni anglatadi. Patiyent korxonalar ma'lum bozor segmentiga ixtisoslashgan va o'ziga xos ustunliklarga ega subyektlardir. Violent korxonalar yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, nisbatan past narxlarda ommaviy mahsulot ishlab chiqarish orqali bozorda yetakchilik qiladi. I. Ansoff tomonidan taklif etilgan va I. Shumpeter tomonidan rivojlantirilgan raqobat nazariyasiga ko'ra, kommutantlar tor bozor segmentlariga tez moslasha oladigan kichik va moslashuvchan korxonalar hisoblanadi. Ular odatda yirik korporatsiyalar e'tibor qaratmaydigan mahalliy yoki ixtisoslashgan talabni qondirishga yo'naltiriladi. Bunday korxonalarga kichik ustaxonalar, ixtisoslashgan ta'mirlash korxonalari, buyurtma asosida dasturiy mahsulot yaratuvchi firmalar hamda kichik fermer xo'jaliklari misol bo'la oladi [6; 7].

Bundan tashqari, mulkdorning strategik qarorlari ham korxonaning hayotiy aylanish bosqichini aniqlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Jumladan, yangi bozorlarga chiqish, yangi mahsulot yoki xizmatlarni joriy etish, faoliyatni diversifikatsiya qilish, qisqartirish, qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risidagi qarorlar korxonaning qaysi rivojlanish bosqichida ekanligini tavsiflaydi.

Amaliyotda KO'BSning huquqiy yoshi bilan iqtisodiy yoshi o'rtasida farq bo'lishi mumkin. Huquqiy yosh davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlansa, iqtisodiy yosh korxona amalda faoliyat boshlagan sanadan hisoblanadi. Ayrim hollarda korxona davlat ro'yxatidan o'tgach, litsenziya olish yoki tashkiliy sabablar tufayli ma'lum muddat faoliyat yuritmasligi mumkin. Shu sababli auditorlik tekshiruvda korxonaning iqtisodiy yoshini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korxonaning yoshi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$KYO = AS - KFBS$$

bunda:

KYO – korxona yoshi;

AS – audit o'tkazish sanasi;

KFBS – korxona faoliyatini boshlash sanasi.

Masalan, «Biznes Erkin Tex» MCHJga auditorlik xizmati 2026-yilda ko'rsatilayotgan bo'lib, korxona o'z faoliyatini 2018-yilda boshlagan bo'lsa, uning yoshi (2026–2018) = 8 yilni tashkil etadi.

Xalqaro amaliyotda barcha kichik va o'rta biznes subyektlariga bir xil tatbiq etiladigan yagona yosh shkalasi mavjud emas. Har bir bosqichning davomiyligi tarmoq, texnologiya, raqobat muhiti, mulkchilik shakli hamda korxonaning rivojlanish sur'atlariga bog'liq. Shunga qaramay, amaliyotda korxonaning yoshiga asoslangan shartli davrlashtirish tavsiya etiladi. Unga ko'ra 0–1 yil – shakllanish, 1–3 yil – o'sish, 3–7 yil – barqarorlik, 7–15 yil – yetuklik, 15 yildan ortiq davr esa pasayish yoki qayta tashkil etish bosqichi sifatida qaraladi [5].

Mazkur tasnifga ko'ra, tadqiqot obyekti bo'lgan «Biznes Erkin Tex» MCHJ audit o'tkazish sanasiga hayotiy aylanishning yetuklik bosqichida faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, keltirilgan intervallarni qat'iy me'yor sifatida qabul qilish mumkin emas. Ular shartli tahliliy chegaralarni ifodalaydi va moliyaviy hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlar bilan birgalikda baholanishi lozim. Chunki o'n yillik faoliyat tarixiga ega korxona hali ham jadal o'sish bosqichida bo'lishi, aksincha pasayish yoki qayta tashkil etish jarayoniga o'tgan bo'lishi, shuningdek, tashkiliy o'zgarishlardan so'ng rivojlanishning yangi bosqichini boshlagan bo'lishi mumkin.

Korxona faoliyat yuritayotgan tarmoq xususiyatlari ham hayotiy aylanish bosqichini aniqlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasida tez o'sish va qisqa innovatsion sikl kuzatilsa, ishlab chiqarish tarmoqlarida kapital qo'yilmalarining uzoq muddatda qoplanishi hamda qat'iy texnologik standartlarga rioya etish talab etiladi. Xizmat ko'rsatish sohasida esa rivojlanish sur'atlari iste'molchilar talabining o'zgarishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

KO'BSlarda hayotiy aylanish bosqichlarini tahlil qilish asosida audit o'tkazishda auditor bosqichlarning taxminiy davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Mazkur shartli davrlashtirishning namunasi [8] manbada keltirilgan bo'lib, u 2-jadvalda aks ettirilgan.

Korxonaning yoshi va uning audit o'tkazish sanasidagi hayotiy aylanish bosqichi audit riskining dastlabki darajasini baholash hamda auditorlik tartib-taomillarini belgilashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan (1-jadval):



1-jadval
Subyektning hayotiy aylanish bosqichlarining davomiyligi²

Tasnif ko'rsatkichlari	Tug'ilish bosqichi	Rivojlanish bosqichi	Yetuklik bosqichi
Yoshi	1-4 yil	4-10 yil	10-15 yil
Xajmi	Mayda subyektlar 3 tadan 100 tagacha xodim	O'rta subyektlar 100 tadan 250 tagacha xodim	O'rta va yirik subyektlar 250 tadan 500 tagacha xodim
Rasmiylashtirish darajasi	Past	O'rta, dastlabki hujjatlarni paydo bo'lishi	Yuqori
Markazlashtirish darajasi	Yuqori	O'rta	Past
Bozor ulushining o'zgarishi	Bir oz o'sish	Sezilarli o'sish	Bir oz o'sish yoki pasayish
Sotish xajmi	50-100 AQSH dollari	50 ming AQSH dollaridan 2 mln. AQSH dollarigacha	50 ming AQSH dollaridan 3 mln. AQSH dollarigacha
Sotish xajmidagi o'sish	10-30 %	30-50%	10-30%
Bozorlar	Mahalliy, mintaqaviy	Mahalliy, mintaqaviy, milliy	Mintaqaviy, milliy, xalqaro

1. Tug'ilish (yuzaga kelish) bosqichi (1–3 yilgacha)

Bosqich tavsifi. Ushbu bosqichda korxona faoliyati bo'yicha yetarli tarixiy ma'lumotlar shakllanmagan bo'ladi. Moliyaviy holat nisbatan beqaror, resurslar cheklangan, boshqaruv funksiyalarining asosiy qismi mulk egasi qo'lida jamlangan bo'lib, biznes modeli tez-tez o'zgarib turishi mumkin.

Risklarni baholash. Ajralmas (ichki) risk (IR) juda yuqori darajada baholanadi, chunki boshqaruv tajribasining yetarli emasligi xatolar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Nazorat vositalari riski (CR) ham odatda juda yuqori bo'ladi, sababi bu bosqichda ichki nazorat tizimi mavjud emas yoki yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra auditor aniqlanmaslik riskini (DR) minimal darajagacha kamaytirishi lozim.

Auditorlik tartib-taomillari. Auditor asosiy e'tiborni mohiyati bo'yicha tekshiruvlarga qaratadi. Tranzaksiyalarni yalpi tekshirish, debitorlik va kreditorlik qarzlarni kontragentlardan bevosita tasdiqlash, inventarizatsiya natijalarining ishonchliligini sinchiklab o'rganish, shuningdek, boshlang'ich qoldiqlar va aktivlarga egalik huquqining asoslanganligini tekshirish tavsiya etiladi [9].

2. O'sish va rivojlanish bosqichi (3–7 yil)

Bosqich tavsifi. Mazkur bosqich sotish hajmining ortishi, qarz kapitalini jalb qilish, operatsiyalar ko'lamining kengayishi hamda dastlabki rasmiy biznes jarayonlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Risklarni baholash. Ajralmas (ichki) risk (IR) o'rtacha yoki yuqori darajada bo'ladi. Operatsiyalar hajmining tez o'sishi, tashkiliy tuzilmaning murakkablashuvi va aylanma kapital yetishmovchiligi ehtimoli jiddiy buzilishlar xavfini oshiradi. Nazorat vositalari riski (CR) pasaya boshlaydi, biroq ichki nazorat tizimi hali to'liq barqarorlashmaganligi sababli uning ishonchliligi yetarli darajada bo'lmaydi. Shu bois auditorning aniqlanmaslik riski (DR) past yoki o'rtacha darajada belgilanadi.

Auditorlik tartib-taomillari. Nazorat testlari mohiyati bo'yicha tekshiruvlar bilan birgalikda o'tkaziladi. Bank kreditlari va boshqa qarz majburiyatlarining to'liq aks ettirilganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Sotish hajmi, rentabellik va marja ko'rsatkichlari tarmoqdagi o'xshash korxonalar bilan taqqoslanadi, ichki nazorat tizimining samaradorligi chuqur baholanadi [10].

3. Yetuklik va barqarorlik bosqichi (7–15 yil)

Bosqich tavsifi. Korxona bozorda barqaror mavqega ega bo'lib, tashkiliy tuzilma shakllangan, funksiyalar taqsimlangan hamda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi izchil faoliyat yuritadi.

Risklarni baholash. Ajralmas (ichki) risk (IR) odatda o'rtacha yoki past darajada bo'ladi, chunki biznes modeli aniq shakllangan va faoliyat natijalarini oldindan prognoz qilish imkoniyati yuqori. Nazorat vositalari riski (CR) ham past darajada baholanadi va auditor samarali ishlayotgan ichki nazorat tizimiga tayanishi mumkin. Natijada aniqlanmaslik riski (DR) o'rtacha yoki yuqori darajada rejalashtiriladi.

Auditorlik tartib-taomillari. Auditorlik ishlarida asosiy urg'u tahliliy muolajalarga qaratiladi. Moliyaviy koeffitsiyentlar, og'ishlar va tendensiyalar tahlil qilinadi, batafsil testlar esa faqat muhim yoki nostandart xo'jalik muomalalari bo'yicha tanlab o'tkaziladi [11].

4. Pasayish bosqichi (15 yildan ortiq)

Bosqich tavsifi. Ushbu bosqich sotish hajmining qisqarishi, likvidlikning pasayishi va bankrotlik xavfining ortishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda auditorlik tekshiruvda tavakkalchilikka asoslangan yondashuv

2 Manba: muallif ishlanmasi.



ustuvor ahamiyat kasb etadi. Asosiy e'tibor faoliyatning uzluksizligini baholash, aktivlarning qadrsizlanishini aniqlash hamda moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish xavflarini tahlil qilishga qaratiladi.

Risklarni baholash. Ajralmas (ichki) risk (IR) yuqori darajada baholanadi, chunki rahbariyatga tushadigan iqtisodiy bosim moliyaviy natijalarni ijobiy ko'rsatishga bo'lgan intilishni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, sotilmaydigan zaxiralar, muddati o'tgan debitorlik qarzlari va asosiy vositalarning qadrsizlanish xavfi ortadi. Nazorat vositalari riski (CR) o'rtacha yoki yuqori darajada baholanadi, chunki resurslar cheklanishi va xodimlar sonining qisqarishi ichki nazorat tizimining samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli auditor aniqlanmaslik riskini (DR) past darajada belgilashi lozim.

Auditorlik tartib-taomillari. Auditor aniqlanmaslik riskini kamaytirish maqsadida kengaytirilgan mohiyati bo'yicha tekshiruvlarni amalga oshiradi. Xususan, faoliyatning uzluksizligi baholanadi, aktivlarning qadrsizlanishi tekshiriladi hamda daromadlar, xarajatlar va majburiyatlarning moliyaviy hisobotda to'liq va ishonchli aks ettirilganligi yuzasidan qo'shimcha auditorlik dalillari to'planadi [12].

Maqolaning yakunida KO'BSning hayotiy aylanish bosqichini aniqlashda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lgan yoshga oid usulning afzalliklari va cheklovlarini yoritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur usulning asosiy ustunliklari va kamchiliklari 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

KO'BS hayotiy aylanish bosqichini aniqlashning "Yoshga oid usul"ni ustunlik va kamchiliklari³

Usulning ustunliklari	Usulning kamchiliklari
hisob-kitobning soddaligi	universal yosh chegaralarining yo'qligi
axborotning ochiqqligi	huquqiy va iqtisodiy yosh o'rtasida farqning mavjud bo'lishi
korxonalarni taqqoslash imkoniyati mavjudligi	turli tarmoqlarda bosqichlarning bir xil davom etmasligi
tanlanmani shakllantirish qulayligi	bosqichlardan takroran o'tish imkoniyati
mijoz bilan dastlabki tanishish bosqichida qo'llanilishi	Yoshni xayotiy aylanishdagi pasayishni mustaqil ravishda aniqlay olmasligi
bosqichlarga xos risklarni oldindan aniqlash imkoniyati	qayta tashkil etish, mulkdorni va biznes-modelni o'zgartirish KO'BS XAB ga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi
	uzoq yillik faoliyat bilan ichki nazoratning yetukligi o'rtasidagi bog'liqlikni zaifligi

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, kichik va o'rta biznes subyektlarining yosh omili uning hayotiy aylanishdagi ehtimoliy bosqichining ko'rsatkichi hisoblanadi, lekin uni yakuniy aniqlashning yetarli mezonini emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KO'BS hayotiy sikli bosqichini aniqlashning yoshga oid usuli xo'jalik yurituvchi subyektning yuridik mavjudligi, haqiqiy xo'jalik faoliyati va amaldagi biznes modelining amal qilish davomiyligi asosida uning ehtimoliy rivojlanish bosqichini dastlabki identifikatsiyalashdan iborat. Bunda yosh oraliqlariga qat'iy belgilangan chegaralar sifatida emas, balki taxminiy yo'laklar sifatida qarash lozim. Subyektni hayotiy aylanishining ma'lum bir bosqichiga yakuniy kiritish uning yoshini moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi, pul oqimlari, tashkiliy yetuklik va bozordagi holati bilan taqqoslash orqali amalga oshirilishi lozim.

Shunday qilib, taklif etilayotgan uslubda yoshga oid usulni mijoz faoliyatini baholashning birinchi bosqichi sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Joost van Buuren, Christopher Koch, Niels van Nieuw Amerongen, Arnold M. Wright. The Use of Business Risk Audit Perspectives by Non-Big 4 Audit Firms. AUDITING: A Journal of Practice & Theory. 2014. Vol. 33, No. 3. P. 105–128.
2. Sonali Jain, Sobhesh Kumar Agarwalla. Big-4 Auditors and Audit Quality: A Novel Firm Life-Cycle Approach. Meditari Accountancy Research. 2022. DOI: 10.1108/MEDAR-09-2021-1435.
3. Yi-Hsing Liao, Yu-Shan Chang. Do Executive or Industry Expert Auditors Matter for New Clients? Evidence from the Business Life Cycle. Journal of Contemporary Accounting & Economics. 2026. Vol. 22, No. 2.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-7444738>
5. Потоцкий О.В. О жизненном цикле предприятий малого и среднего бизнеса и различных механизмах

3 Manba: muallif ishlanmasi.



- реализации управленческих решений на его этапах // Российское предпринимательство. 2016. Т. 17. № 1. С. 47–70. DOI: 10.18334/rp.17.1.2197.
6. Пономорев А.Е. Влияние шумпетерианской конкуренции на структуру рынка: эволюционный подход: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2010.
 7. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2003. – 895 с.
 8. Широкова Г.В. Жизненные циклы российских предпринимательских фирм: методология исследования и основные стадии: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – СПб.: Высшая школа менеджмента СПбГУ, 2010. – 25 с.
 9. Xalqaro audit standarti (XAS) 330. "Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari".
 10. Пономорева И.И., Луночкина Е.А. Методы проведения аудита финансового состояния организации с учетом стадии ее жизненного цикла (на примере компании строительной отрасли) // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2011. № 27 (69).
 11. Богатая И.Н. Сущность дефиниции «Аудиторский риск» и ее роль в аудиторской деятельности // Экономический анализ: теория и практика.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100